



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№8(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 148 sahifa,
24-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.


Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari	10
Sultonov Xaytboy Eraliyevich	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	14
Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi	
Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida....	19
Tengelbayeva Dinora Muratovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik ta'lim va tarbiyalashning muammo va yechimlari.....	25
Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna	
Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlanishidagi o'rni.....	30
Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li	
Mehnat migratsiyasi fenomeni va oila dialektikasining pedagogik aspektlari: translokallik sharoitida farzand tarbiyasi va "intelektual transfer" mediatsiyasi.....	34
K. B. Numanov	
Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari	38
Ismailov Abduvali Abdumalikovich	
CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi.....	45
Ergasheva Feruza Davlatali qizi	
Talabalarda raqamli toliqish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili	48
Xamdanova Muazzamxon Xabibullo qizi	
Metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati va raqamli ta'lim muhitida uni rivojlantirishning nazariy asoslari	52
Mamatmurotova Muhlis Kamol qizi	
Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasi	59
Otabayeva Muazzam Abdumajidovna	
Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	63
Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna	
Kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	69
Sharipov Hayotjon Safarovich	
"Muqobil energiya manbalari" fanini mustaqil ta'lim asosida o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish	75
Abduqahhorova Munajat Abdulxafiz qizi	
"Elektr ta'minoti" fanini o'qitishga mos yangi interfaol metod ishlab chiqish	79
Baratova Madinaxon Paxridinovna	
"Muqobil energiya manbalari" fanini o'qitish metodikasini kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish	83
Jumayeva Farzona Behzodjon qizi	
Oilada bolalarning emotsional rivojlanishining psixologik determinantlari	87
Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlashda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish modelining samaradorligi.....	92
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna	



Махалля как гуманистическая воспитательная экосистема: социально-педагогические механизмы модернизации в новом Узбекистане	97
Фадлиева Амина Ильхамовна	
Talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining psixologik mazmuni, tuzilishi va funksional xususiyatlari	102
Jumaniyozov Yunus Shodurdi o'g'li	
Adabiyot ta'limida immersiv texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari	112
Umarov Mirzohid Baxromjon o'g'li	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik omillari	116
Xasanov Javohir Muxtorovich	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda axborot texnologiyalari va hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	125
Malikova Madina Abduraxmon qizi	
Pedagogical and Methodological Possibilities for Developing Students' Critical Thinking Competence in Teaching English Based on the "Project-Based Learning" Approach	129
Berdiyeva Shakhnoza Kholmakhammatovna	
Chekka hisoblash texnologiyasi yordamida aqlli mehmonxonada real-vaqt kayfiyat aniqlash va IoT qurilmalarini avtomatik boshqarish tizimi: Smart mood	132
Choryorqulov G'iyos Husan o'g'li, Botirova Mashhura Tulqin qizi	
Developing Academic Writing Skills Through Digital Media Tools	137
Tog'ayeva Muattar Bahodir qizi	
Xotin-qizlarda emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	144
Beknazarova Nigina Zarip qizi	



XOTIN-QIZLARDA EMOTSIONAL DEFITSIT VA NIKOHDAN TASHQARI MUNOSABATLAR O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNING IJTIMOY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Beknazarova Nigina Zarip qizi

Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodim

Annotatsiya: Mazkur maqolada xotin-qizlarda emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik o'rtasidagi bog'liqlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi oilaviy munosabatlarda emotsional ehtiyojlarning qondirilmasligi, turmush o'rtoqlar o'rtasidagi emotsional yaqinlikning pasayishi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yetishmovchiligi hamda nikohdan tashqari emotsional yoki romantik munosabatlarga moyillik o'rtasidagi o'zaro aloqani aniqlashdan iborat. Tadqiqotda so'rovnoma, psixodiagnostik metodikalar, korrelyatsion va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish taklif etiladi. Maqolada emotsional defitsitning asosiy tarkibiy qismlari sifatida emotsional yaqinlikning yetishmasligi, e'tibor va qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj, yolg'izlik hissi, muloqotdan qoniqmaslik va munosabatlardagi emotsional sovuqlik ko'rib chiqiladi. Tahlil natijalari emotsional ehtiyojlarning muntazam ravishda qondirilmasligi nikohdan tashqari munosabatlarga moyillikning oshishi bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mazkur bog'liqlikni faqat individual omillar bilan emas, balki oilaviy muloqot, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, nikohdan qoniqish va jamiytdagi gender me'yorlari bilan kompleks ravishda izohlash zarurligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar, emotsional defitsit, nikoh, nikohdan tashqari munosabatlar, emotsional yaqinlik, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, yolg'izlik, nikohdan qoniqish, ijtimoiy-psixologik omillar.

Abstract: This article analyzes the socio-psychological characteristics of the relationship between emotional deficit and women's propensity toward extramarital relationships. The main purpose of the study is to identify the relationship between unmet emotional needs in marital relationships, reduced emotional intimacy between spouses, insufficient social support, and the tendency to engage in emotional or romantic extramarital relationships. The study proposes the use of questionnaires, psychodiagnostic methods, correlation analysis, and comparative analysis. The main components of emotional deficit examined in the article include a lack of emotional intimacy, the need for attention and support, feelings of loneliness, dissatisfaction with communication, and emotional detachment within relationships. The results of the analysis indicate that the systematic failure to meet emotional needs may be associated with an increased propensity toward extramarital relationships. At the same time, the article substantiates the need to explain this relationship comprehensively, taking into account not only individual psychological factors but also family communication, social support, marital satisfaction, and gender norms prevailing in society.

Key words: women, emotional deficit, marriage, extramarital relationships, emotional intimacy, family relationships, social support, loneliness, marital satisfaction, socio-psychological factors.

Аннотация: В данной статье анализируются социально-психологические особенности взаимосвязи между эмоциональным дефицитом и склонностью женщин к внебрачным отношениям. Основная цель исследования заключается в выявлении взаимосвязи между неудовлетворённостью эмоциональных потребностей в семейных отношениях, снижением эмоциональной близости между супругами, недостатком социальной поддержки и склонностью к эмоциональным или романтическим внебрачным отношениям. В исследовании предполагается использование анкетирования, психодиагностических методик, корреляционного и сравнительного анализа. В качестве основных компонентов эмоционального дефицита рассматриваются недостаток эмоциональной близости, потребность во внимании и поддержке, чувство одиночества, неудовлетворённость общением и эмоциональная холодность в отношениях. Результаты анализа показывают, что систематическая неудовлетворённость эмоциональных потребностей может быть связана с повышением склонности к внебрачным отношениям. Вместе с тем обосновывается необходимость комплексного объяснения данной взаимосвязи с учётом не только индивидуально-психологических факторов, но и особенностей семейной коммуникации, социальной поддержки, удовлетворённости браком и гендерных норм, существующих в обществе.

Ключевые слова: женщины, эмоциональный дефицит, брак, внебрачные отношения, эмоциональная близость, семейные отношения, социальная поддержка, одиночество, удовлетворённость браком, социально-психологические факторы.



KIRISH

Oila insonning emotsional xavfsizligi, psixologik barqarorligi va ijtimoiy moslashuvda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy institutlardan biridir. Nikoh munosabatlarining barqarorligi nafaqat iqtisodiy yoki maishiy sharoitlar, balki er-xotin o'rtasidagi emotsional yaqinlik, o'zaro hurmat, ishonch, qo'llab-quvvatlash va samarali muloqot bilan ham belgilanadi. Zamonaviy jamiyatda oilaviy munosabatlarning mazmuni sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Ayollarning ta'lim va kasbiy faoliyatdagi ishtiroki, ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi, individual ehtiyojlarning ortishi va shaxslararo munosabatlarga qo'yiladigan psixologik talablarning kuchayishi nikoh munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Emotsional defitsit tushunchasi shaxsning yaqin munosabatlarda mehr, e'tibor, tushunish, qo'llab-quvvatlash, qabul qilinish va emotsional yaqinlik kabi ehtiyojlarining yetarli darajada qondirilmassligini anglatadi. Bunday holat uzoq vaqt davom etganda shaxsda yolg'izlik, qadrsizlanish, emotsional bo'shliq, norozilik va munosabatlardan qoniqmaslik hissi paydo bo'lishi mumkin. Ayniqsa, nikoh munosabatlarida emotsional aloqa zaiflashganda, ayol boshqa shaxslar bilan muloqot orqali o'zining emotsional ehtiyojlarini qondirishga intilishi ehtimoli yuzaga keladi. Bunday muloqot dastlab oddiy ijtimoiy aloqa shaklida bo'lishi, keyinchalik esa emotsional yaqinlik yoki romantik munosabatlarga aylanishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, nikohdan tashqari munosabatlarni faqat axloqiy yoki individual tanlov sifatida emas, balki shaxslararo va oilaviy munosabatlar tizimida yuzaga keluvchi murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida o'rganish muhimdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotning maqsadi xotin-qizlarda emotsional defitsit darajasi bilan nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash hamda ushbu jarayonni belgilovchi ijtimoiy-psixologik omillarni kompleks tahlil qilishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqib, tadqiqotda, avvalo, emotsional defitsitning psixologik mazmuni va uning asosiy ko'rsatkichlari, jumladan, emotsional yaqinlikning yetishmasligi, e'tibor va qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ehtiyoj, yolg'izlik hissi hamda oilaviy muloqotdan qoniqmaslik holatlari o'rganiladi; shuningdek, xotin-qizlarning nikohdan qoniqish darajasi va turmush o'rtog'i bilan emotsional yaqinligi baholalanadi.

Tadqiqotning muhim yo'nalishlaridan biri emotsional defitsit va nikohdan tashqari emotsional yoki romantik munosabatlarga moyillik o'rtasidagi statistik bog'liqlikni aniqlash bo'lib, bunda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, oilaviy muloqot sifati va nikohdan qoniqish kabi omillarning roli tahlil qilinadi. Tadqiqot gipotezasiga ko'ra, xotin-qizlarda emotsional defitsit darajasi oshgani sari nikohdan tashqari emotsional va romantik munosabatlarga moyillik ham ortishi mumkin; ya'ni oilada mehr, e'tibor, tushunish va emotsional qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ehtiyojlarning muntazam ravishda qondirilmassligi boshqa shaxslar bilan emotsional yaqinlik izlash ehtimolini kuchaytiruvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'lishi taxmin qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda xotin-qizlarda emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida emotsional ehtiyojlar va emotsional yaqinlikni baholash so'rovnomasi, nikohdan qoniqish shkalasi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni baholash metodikasi, yolg'izlik hissini aniqlash shkalasi hamda nikohdan tashqari munosabatlarga moyillikni baholovchi mualliflik so'rovnomasi qo'llanildi. 120 nafar turmush qurgan xotin-qiz jalb qilindi. Respondentlarning yoshi 25–45 yosh oralig'ida bo'lib, nikoh davomiyligi 3 yildan 20 yilgacha deb belgilandi.

1-jadval: Respondentlarning ijtimoiy-demografik tavsifi

Ko'rsatkich	Guruh	n	%
Yosh	25–30 yosh	32	26,7
	31–35 yosh	36	30,0
	36–40 yosh	29	24,2
	41–45 yosh	23	19,1
Nikoh davomiyligi	3–5 yil	25	20,8
	6–10 yil	37	30,8
	11–15 yil	34	28,3
	16–20 yil	24	20,0

Asosiy ko'rsatkichlari sifatida emotsional defitsit, nikohdan qoniqish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, yolg'izlik va nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik o'rganildi.

**2-jadval: Tadqiqotning asosiy psixologik ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkich	O'rtacha qiymat (M)	Standart og'ish (SD)	Daraja
Emotsional defitsit	3,42	0,81	O'rtacha-yuqori
Nikohdan qoniqish	2,91	0,76	O'rtacha
Emotsional yaqinlik	2,84	0,79	O'rtacha
Yolg'izlik	3,18	0,83	O'rtacha-yuqori
Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash	3,01	0,72	O'rtacha
Nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik	2,76	0,85	O'rtacha

TAHLIL VA NATIJALAR

Natijalardan ko'rinishicha, respondentlarda emotsional defitsitning o'rtacha darajasi nisbatan yuqori bo'lgan. Shu bilan birga, nikohdan qoniqish va emotsional yaqinlik ko'rsatkichlari o'rtacha darajada qayd etilgan. Emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun korrelyatsion tahlil amalga oshirildi.

3-jadval: Asosiy o'zgaruvchilar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik

O'zgaruvchilar	r	p
Emotsional defitsit – nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik	0,58	<0,001
Emotsional defitsit – nikohdan qoniqish	-0,64	<0,001
Emotsional defitsit – emotsional yaqinlik	-0,61	<0,001
Emotsional defitsit – yolg'izlik	0,67	<0,001
Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash – emotsional defitsit	-0,49	<0,001
Nikohdan qoniqish – nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik	-0,53	<0,001
Emotsional yaqinlik – nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik	-0,47	<0,001

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik o'rtasida ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik mavjud ($r=0,58$; $p<0,001$). Emotsional defitsit oshgani sari nikohdan qoniqish pasaygan ($r=-0,64$; $p<0,001$). Shuningdek, emotsional defitsit va yolg'izlik o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik aniqlangan ($r=0,67$; $p<0,001$). Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash esa emotsional defitsit bilan manfiy bog'langan ($r=-0,49$; $p<0,001$). Bu esa yaqin ijtimoiy muhit tomonidan qo'llab-quvvatlanishning yetarli bo'lishi emotsional bo'shliqni kamaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

4-jadval: Emotsional defitsit darajasi bo'yicha guruhlar taqqoslanishi

Guruh	n	Nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik (M)	SD
Past emotsional defitsit	39	1,94	0,61
O'rtacha emotsional defitsit	45	2,67	0,68
Yuqori emotsional defitsit	36	3,73	0,72

Yuqori emotsional defitsit guruhidagi respondentlarda nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik ko'rsatkichi past emotsional defitsit guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi kuzatiladi. Biroq ushbu natijani nikohdan tashqari munosabatlarning bevosita sababi emotsional defitsitdir, degan qat'iy xulosa sifatida talqin qilish mumkin emas. Mazkur bog'liqlikka nikohdan qoniqmaslik, kommunikativ muammolar, shaxsiy ehtiyojlar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi va individual psixologik xususiyatlar ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tadqiqot natijalari xotin-qizlarda emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik o'rtasida sezilarli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Ayniqsa, emotsional yaqinlikning yetishmasligi, muntazam e'tibor va qo'llab-quvvatlashning kamayishi hamda yolg'izlik hissining kuchayishi nikoh munosabatlaridan qoniqishning pasayishi bilan birga kuzatiladi.

Emotsional ehtiyojlar uzoq vaqt davomida qondirilmagan holatda shaxsda "meni tushunadigan inson kerak", "mening his-tuyg'ularimga e'tibor berilmayapti" yoki "men oilada bo'lsam ham o'zimni yolg'iz his qilaman" kabi subyektiv kechinmalar shakllanishi mumkin. Bunday psixologik holat shaxsni boshqa odamlar bilan emotsional aloqa izlashga undashi ehtimolini oshiradi. Shu bilan birga, nikohdan tashqari munosabatlarni faqat emotsional defitsit bilan izohlash ilmiy jihatdan biryozqlama yondashuv bo'ladi. Chunki ushbu jarayon ko'plab omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelishi mumkin.



5-jadval: Nikohdan tashqari munosabatlarga ta'sir qiluvchi asosiy ijtimoiy-psixologik omillar

Omil	Ta'sir mexanizmi	Kutiladigan yo'nalish
Emotsional defitsit	Mehr va e'tibor ehtiyojlarining qondirilmasligi	Moyillikni oshiradi
Nikohdan qoniqmaslik	Oilaviy munosabatlardan norozilik	Moyillikni oshiradi
Emotsional yaqinlikning pastligi	Er-xotin o'rtasidagi hissiy masofaning ortishi	Moyillikni oshiradi
Yolg'izlik	Oila ichida ham psixologik yolg'izlikni his qilish	Moyillikni oshiradi
Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash	Psixologik resurslarning mavjudligi	Moyillikni kamaytiradi
Oilaviy muloqot sifati	Muammolarni ochiq muhokama qilish imkoniyati	Moyillikni kamaytiradi
O'z-o'zini qadrlash	Shaxsiy chegaralar va ehtiyojlarni anglash	Ikki tomonlama ta'sir
Stress va emotsional zo'riqish	Psixologik resurslarning kamayishi	Bilvosita oshirishi mumkin

Mazkur natijalar asosida emotsional defitsitni nikohdan tashqari munosabatlarning yagona determinanti emas, balki risk omillaridan biri sifatida baholash maqsadga muvofiq. Tadqiqotning yana bir muhim jihati shundan iboratki, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash emotsional defitsit bilan manfiy bog'liqlikni namoyon qilgan. Bu oilaviy muammolarni bartaraf etishda faqat er-xotin munosabatlariga emas, balki ayolning kengroq ijtimoiy muhitiga ham e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA

O'tkazilgan nazariy va empirik tahlil asosida shuni ta'kidlash mumkinki, xotin-qizlarda emotsional defitsit oilaviy munosabatlarda mehr, e'tibor, tushunish, emotsional yaqinlik va qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ehtiyojlarning yetarli darajada qondirilmasligi bilan tavsiflanadi. Emotsional defitsit darajasining yuqoriligi nikohdan qoniqishning pasayishi va yolg'izlik hissining kuchayishi bilan bog'liq bo'lib, o'z navbatida, emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Bunda emotsional yaqinlik va nikohdan qoniqishning yuqori darajasi nikohdan tashqari munosabatlarga moyillikni kamaytiruvchi muhim himoya omillari sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Shuningdek, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xotin-qizlarning emotsional resurslarini mustahkamlash, yolg'izlik hissini kamaytirish va emotsional defitsitning salbiy oqibatlarini yumshatishda muhim psixologik resurs hisoblanadi. Shu sababli nikohdan tashqari munosabatlarni faqat ayolning individual qarori yoki axloqiy xatti-harakati sifatida emas, balki shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy-psixologik omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan murakkab psixologik hodisa sifatida kompleks o'rganish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bowlby J. A Secure Base: Parent-Child Attachment and Healthy Human Development. – London: Routledge, 1988. – 224 p.
2. Gottman J. M., Silver N. The Seven Principles for Making Marriage Work. – New York: Harmony Books, 2015. – 288 p.
3. Hazan C., Shaver P. Romantic Love Conceptualized as an Attachment Process // Journal of Personality and Social Psychology. – Washington, 1987. – Vol. 52. – № 3. – P. 511–524.
4. Reis H. T., Shaver P. Intimacy as an Interpersonal Process // Handbook of Personal Relationships / Ed. by S. Duck. – Chichester: Wiley, 1988. – P. 367–389.
5. Rusbult C. E., Martz J. M., Agnew C. R. The Investment Model Scale: Measuring Commitment Level, Satisfaction Level, Quality of Alternatives, and Investment Size // Personal Relationships. – 1998. – Vol. 5. – № 4. – P. 357–391.
6. Glass S. P., Wright T. L. Justifications for Extramarital Relationships: The Association between Attitudes, Behaviors, and Gender // Journal of Sex Research. – 1992. – Vol. 29. – № 3. – P. 361–387.
7. Atkins D. C., Baucom D. H., Jacobson N. S. Understanding Infidelity: Correlates in a National Random Sample // Journal of Family Psychology. – 2001. – Vol. 15. – № 4. – P. 735–749.
8. Allen E. S., Atkins D. C., Baucom D. H., Snyder D. K., Gordon K. C., Glass S. P. Intrapersonal, Interpersonal, and Contextual Factors in Engaging in and Responding to Extramarital Involvement // Clinical Psychology: Science and Practice. – 2005. – Vol. 12. – № 2. – P. 101–130.
9. Fincham F. D., May R. W. Infidelity in Romantic Relationships // Current Opinion in Psychology. – 2017. – Vol. 13. – P. 70–74.
10. Levinger G. A Social Psychological Perspective on Marital Dissolution // Journal of Social Issues. – 1979. – Vol. 35. – № 4. – P. 21–47.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.